



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

XX ASR BIRINCHI CHORAGIDAGI O'ZBEK FOLKLORI MATERIALLARINING ILK TO'PLOVCHILARI

Ulug'murod Amonov,
BuxDPI dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida o'zbek folklorini to'plash harakatining boshlanishi, shu ulug' maqsad yo'lida baxshilar, xalfalar, xalq og'zaki bilimdonlarini aniqlab, ulardan xalqning badiiy tafakkuri mahsuli bo'lmish xalq og'zaki ijodi asarlarini yozib olgan, arxivlarda nomi noma'lum qolayotgan folklor to'plovchilar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, folklor, baxshi, baxshichilik, to'plovchilik, doston, ertak.

Аннотация: В данной статье рассматривается зарождение движения по собиранию узбекского фольклора в начале XX века и собиратели фольклора, которые, преследуя эту великую цель, выявляли бахши, халфа, фольклористов и записывали произведения фольклорного искусства, являвшиеся продуктом художественного мышления народа, но имена которых остаются неизвестными в архивах.

Ключевые слова: устное народное творчество, фольклор, бахши, культура бахши, собирательство, эпос, сказка.

Abstract: This article examines the emergence of the Uzbek folklore collection movement in the early 20th century and the folklore collectors who, pursuing this great goal, identified bakhshis, khalfas, and folklorists and recorded works of folklore art that were products of the artistic thinking of the people, but whose names remain unknown in the archives.

Key words: oral folklore, folklore, Bakhshi, Bakhshi culture, collecting, epic, fairy tale.

XX asrning 20-yillari o'rtalaridan boshlab folkloristik ishlarga O'zbekiston Maorif xalq komissarligi ilmiy sho'rosining O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi (1925-1929) bosh-qosh bo'ldi. G'ozi Olim Yunusov, Hodi Zarif, Abdulla Alaviy kabi olim va shoirlarning tashabbusi bilan Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan, Nurmon Abduvov o'g'li, Berdi baxshi, Abdulla shoir, Xolyor Abdukarim o'g'li, Do'styor Xo'jayor o'g'li kabi atoqli dostonchilar aniqlandi. To'plovchilik ishlariga Muhammad Isa Ernazar o'g'li, Mulla Abdurahmon, Mahmud Zarifov, Tovfiq Mustafoev, Bahrom Ibrohimov, Muqim Hamzabekov, Nazarqosim Mirzaev, Husayn Karimiy, Rahmatilla Yusuf o'g'li kabi mahalliy ziyolilar jalb qilindi.

Zarif Qodiriy O'zbekiston xalq Maorif komissarligi Ilmiy markazining "O'zbeklarni o'rganish komiteti" tomonidan 1926-1928-yillarda Samarqand viloyati bo'ylab xalq dostonlarini to'plash maqsadida olib borgan ilmiy izlanishlarida faol ishtirok etgan mutaxassislardan biri bo'lgan. U 1927-yilda g'oyatda chechan, hozirjavob va badihago'y baxshi Nurmon Abduvov o'g'lidan "Kuntug'mish" dostonining o'ziga xos "Kuntug'mish polvon" variantini (ZO'FA. Inv.Nº26) va "Orzigul" ("Abdulla kofir". ZO'FA.Inv.Nº28) dostonlarini yozib olgan.

O'tgan asr boshlarida fidoyi folklor to'plovchi bo'lganlaridan yana biri Muhammadisa Ernazar o'g'li bo'lib, u 1887-yilda hozirgi Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi Gadoy qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi tirikchilik bois keyinchalik Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi Qirqshodi qishlog'iga kelib, shu yerda o'rnashib qolgan. **Muhammadisa Ernazar o'g'li** ana shu qishloqdagi eski maktabda savodini chiqargach, Samarqanddagi madrasalardan birida to'rt-besh yil tahsil olgan. Keyinchalik ma'lum muddat Buxoro va Turkiyadagi ilm dargohlarida ham o'qigan. O'tgan asrning 20-yillaridan boshlab Bulung'ur tumani xalq sudida xizmat qilgan. Xalq og'zaki ijodiga ixlosi baland bo'lgan Muhammadisa Ernazar o'g'li Fozil shoir bilan do'st bo'lgan. O'zbekiston xalq Maorif komissarligi Ilmiy markazining O'zbeklarni o'rganish komiteti xalq dostonlarini to'plashga kirishganda, u ham

bu xayrli ishga qattiq bel bog'lagan. Xususan, Ergash Jumanbulbul o'g'lini Qo'rg'on qishlog'idan Samarqandga olib kelish va asarlarini ëzib olishni tashkil etishga Muhammadisa Ernazar o'g'li bosh-qosh bo'lgan. 1926-28-yillarda Muhammadisa Ernazar o'g'lining Qirqshodi qishlog'idagi Kamtarxona mahallasida joylashgan uyida Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li va Po'ltkan shoirdan ko'pgina dostonlar yozib olingan. Bu yerga Bulung'ur, Narpay va Qo'rg'on dostonchilik maktabiga mansub ko'plab baxshi-shoirlar to'planishgan. Muhammadisa Ernazar o'g'lining tashabbusi bilan 1926-28-yillarda Qirqshodi qishlog'i o'ziga xos o'zbek dostonchiligining markaziga aylangan.

Ergash Jumanbulbul o'g'li o'zining "Kunduz bilan Qunduz" dostonida Qirqshodi qishlog'idagi doston yozib olish jarayonlarini eslab, shunday degan edi:

*So'zimni o'qisang qog'oz betida,
Bir ming to'qqiz yuz yigirma yettida,
Tamom qildim shu dostonni men o'zim,
Tarixini aytsam yanvar to'rtida,
Shu kunida tamom qildim dostonni,
Qichab yetdim-da qirqlarning yurtida.*

*Odamga qo'shilmay bitib panada,
Qirqning qishlog'ida, Kaptarxonada,
Qaysi vaqtda bitgan ekan demasin,
Bitganimni aytib qo'ydim sanada,
Begona emasdi, qirqdandir o'zi,
Shu dostonning ko'pi lsoning so'zi,
Maorifga xizmat qilib tanilgan,
Urug'i bo'ladi qirqman yuzi [ZO'FA.Inv.Nº21].*

Xalq shoirlarini izlab topish va ularning ijodini ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilishda alohida jonbozlik ko'rsatgan Muhammadisa Ernazar o'g'li baxshilarni to'plab, dostonlarini ëzib olishni tashkil qilish bilan cheklanmay, o'zi ham Ergash Jumanbulbul o'g'lidan "Kunduz bilan Yulduz", "Alpomish" (Po'ltkan shoir bilan birgalikda aytilgan) dostonlarini, "Shoirlarga rahbar Hodi", "Oxunboboev", "G'ozli Olim", "Otajon Hoshim" kabi termalarni, Fozil Yo'ldosh o'g'lidan "Malika Ayër", "Murodxon", "Shirin bilan Shakar", Po'ltkan shoirdan "Go'ro'g'lining Arab Rayhonning qizini olib qochib kelishi", "Qironxon" kabi dostonlarni ëzib olgan.

Afsuski, XX asrning 30-yillarida boshlangan qatag'on juda ko'p hur fikr ziëlilar qatori Muhammadisa Ernazar o'g'lini ham o'z komiga tortib ketdi. Xalq ijodiëtinining jonkuyari, fidoyi folklor to'plovchilaridan bo'lgan Muhammadisa Ernazar o'g'li ham qatag'on qurboniga aylangan. U 1931-yilning 19-dekabrda Qirqshodi qishlog'ida hibsga olingan. 1965- yil 21-dekabrda hibsga olingunga qadar Samarqand viloyatida xalq sudyasi bo'lib ishlagan Muhammadisa Ernazar o'g'li (Ernazarov Mulla Isa)ning ayblov ishi Turkiston harbiy okrugining harbiy tribunali tomonidan qayta ko'rib chiqilgan va 1932-yilning 14-oktyabrda chiqarilgan hukm bekor qilinib, ish to'xtatilgan va Muhammadisa Ernazar o'g'li oqlangan.

O'tgan asr boshlarida fidoyi folklor to'plovchilari qatorida nom qoldirganlardan yana biri Fotimadir. Uning familiyasini aniqlashning imkoni bo'lmadi. O'zbekiston xalq Maorif komissarligi Ilmiy markazining O'zbeklarni o'rganish komiteti atoqli baxshilarni o'sha paytda Samarqand viloyati xalq sudida xizmat qilgan Muhammadisa Ernazar o'g'lining Bulung'ur tumanidagi Qirqshodi qishlog'ining Kaptarxona mahallasidagi uyiga to'plab, ularning repertuaridagi xalq dostonlari yozib olinganida 1926-1927-yillarda bu ishga Fotima ham jalb etilgan. Juda savodxon va chiroyli husnixat sohibasi bo'lgan bu ayol O'zbekiston Xalq Maorif komissarligi Davlat ilmiy sho'rosining "O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi" xodimi sifatida folklor to'plash ishlarida ishtirok etgan yoki Samarqanddagi maktablarning birida muallima bo'lib ishlagan bu maorif xodimasi qo'mita tomonidan dostonni yozib olish uchun Po'ltkan shoirga kotiba etib tayinlangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki O'zR FA Alisher Navoiy

nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi materiallarining guvohlik berishicha, Fotima bilan Muhammadisa Ernazar o'g'li 1926-yilda Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkandan "Qironxon" dostonini yozib olgan bo'lsa, 1927-yilda uning o'zi baxshining "Avazxon", "Bo'tako'z" (1-bo'lak), "Misqol pari", "Yunus pari" dostonlarini qog'ozga tushirgan.

Muhammadisa Ernazar o'g'li 1926-yil iyun-sentyabr oylarida Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkand shoiridan "Qironxon" dostonini yozib olgan. Doston qo'lyozmasining 1926- yil 12-sentyabr sanasi ko'rsatilgan sahifasidan keyingi qismi, ya'ni "Ana shunda Semurg' qush Qironxonning sha'ni-shavkatiga, sini-sinbatiga ko'zi tushib, odamzod bo'lganingga barakalla deb, ajdahoni o'ldirganiga dimog'i choq bo'lib, ko'ngli jo'sh urib, yuragi toshib, Qironxonga qarab bir so'z dedi" jumlasidan boshlab ushbu asarni yozib olishni folklor to'plovchi Fotima davom ettirgan. Binobarin, doston qo'lyozmasi "Fotima mirzoning qo'lidan tamom bo'ldi", – degan yozuv bilan tugagan.

Rafiq Mo'min ham o'tgan asr boshlarida folklor to'plovchilardan biri sifatida nom qoldirganlardandir. Aslida ko'proq shoir sifatida nom qozona olgan Rafiq Mo'min 1900-yil 7-fevralda Namangan shahrida dunyoga kelgan. U o'z mahallasidagi eski maktabda savodini chiqargach, madrasada tahsil olgan. Keyinchalik Namangandagi rus-tuzem maktabida o'qib, rus tilini, Sharq va G'arb adabiyotini o'rgangan. Shundan keyin maktablarda o'qituvchilik qilish bilan shug'ullangan. Ko'pgina lirik va hajviy she'rlar yozgan, "Mushtum", "Mashrab" jurnallarida o'z asarlari bilan faol qantashib turgan. "Yoriltosh", "Oydin", "Zahhoki moron" singari pesalar yozib, sahnaga qo'ygan. Xalq rivoyatlari asosida "Qizil qiz", "Zanglagan pichoq", "Tiyoshnon qizi", "Qapchig'ay" kabi dostonlarni yaratgan. 1922-1925-yillarda izboskanlik Yormat bobodan "Yozi bilan Zebo" dostonini yozib olgan. Rafiq Mo'min 1951-yil 5-mayda vafot etgan.

G'ozi Olim Yunusov "O'zbeklarda el tanish ishi" maqolasida folklor to'plash bilan bog'liq sayohatlari davomida o'zlarining maslahatlari va ma'lumotlari bilan yordam ko'rsatgan kattaqo'rg'onlik Bahrombek Davlatshoev, Zarif Qodirov, samarqandlik Vadud Mahmudov va Mahammadjon Yusuf, Samarqand uyezdi Halvoyi bo'lusidagi sarchashmalik Mulla Islombek qozi janoblari nomlarini alohida tilga olib, ularga rasmiy minnatdorchilik izhor etadi.

Aytish kerakki, o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi marta 1925- yilning oxirlaridan boshlab an'anaviy va zamonaviy xalq dostonlarining to'la matnlari bevosita xalq shoirlari og'zidan yozib olinib boshladi. Qisqa bir davrda «Alpomish», «Shayboniyxon», «Yusuf bilan Ahmad», «Alibek bilan Bolibek», «Yakka Ahmad», «Kuntug'mish», «Murodxon», «Shirin bilan Shakar», «Qironxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari», «Chambil qamali», «Xoldorxon», «Avazxon», «Qunduz bilan Yulduz», «Malika ayyor», «Hasanxon», «Dalli», «Ravshan», «Ochildov», «Hasan batrak» kabi xalq eposining ajoyib durdonalari yozib olindi.

XX asrning boshlarida o'sha davrdagi O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan qaror asosida dastlab Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutining filologik bo'limlari tashkil etildi. Undan so'ng shu bo'limlar asosida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarkibida 1933-yil noyabr oyida Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutiga asos solindi. Bu ilmiy dargoh 1934-yilning yanvar oyidan mustaqil ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida ish boshlagan. 1934-yilda mazkur institut huzurida "Lug'atlar", "Hozirgi o'zbek tili", "O'zbek sho'ro adabiyoti" bo'limlari qatorida "Folklor" bo'limi¹ ham mustaqil faoliyat olib borgan. U o'zbek xalq ijodi namunalarini to'plash, nashr etish va folklor amaliyotini tashkil etib, jiddiy yutuqlarga erishishida shungacha Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan tashkil qilingan "Chig'atoy gurungi" tomonidan amalga oshirilgan ishlar dasturiy ahamiyat kasb etgani sir emas. Yana XX asrning 20-yillarida Abdurauf Fitrat, Olim Sharafiddinov, G'ozi Olim Yunusov,

¹ Ўшанда бўлимлар "сектор" деб юритилган.

Abdulla Alaviy, Elbeklar tomonidan bu borada qilingan xayrli ishlar folklorshunoslik rivojini ta'minlashda muhim zamin bo'ldi, deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.82-83.
2. Абдурауф Фитрат. Эл адабиёти // Адабиёт қоидалари / ТА. 4-жилд. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.71.
3. Мирзаев Т. ва бошқалар. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б.3
4. Мирзаев Т. Абдурауф Фитрат. // Ҳоди Зариф суҳбатлари. Устозлар, ҳамкорлар ва сафдошлар. – Тошкент: "SHAMS - ASA". – Б.52.
5. O.Safarov. O`zbek xalq og`zaki ijodi. Darslik. – Toshkent: Aloqachi, 2010. – В. 70.
6. Ўзбек фольклори. Педагогик институтлар учун хрестоматия / Тузувчи Ҳоди Зариф. 1-китоб. – Тошкент: Ўқувпеднашр, 1939. – Б.285-353.
7. Amonov, U. (2024). SADRIDDIN AINI'S CRITICAL VIEWS (BASED ON THE TAZKIRAH "SAMPLE TAJIK LITERATURE"). European International Journal of Pedagogics, 4(11), 200-207.
8. Амонов, У. С. (2022). Jadidchilik harakati va «Buxoroyi sharif» ro 'znomasi: Amonov Ulug 'murod Sultonovich, BuxDUPI dotsenti, filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, 5, 62-67.
9. Ulugmurod, A. S. Abdurauf fitrat is one of the earliest researchers of Uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 6. First page:(669) Last page:(673). Online ISSN, 2249-7137.